

MILLIY VA IJTIMOYIY KURASHLAR DAVRI ADABIYOTIDA  
TO‘LAGAN XO‘JAMYOROVNING FAOLIYATI

*Abdumo‘minova Ziyoda Sherzod qizi*

*Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti*

*1-kurs malay-ingliz guruhi talabasi*

*Ilmiy rahbar: M.B.Mamatkulova*

*[zkim777@gmail.com](mailto:zkim777@gmail.com)*

*+99893 233 21 05*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ikki buyuk asr XIX va XX asrlar oralig‘idagi 50-60 yillik davr qadim va boy o‘zbek adabiyoti tarixida g‘oyat muhim ahamiyat kasb etganligi, “Adabiyot millat oynasi” (Avloniy) sifatida xalqimiz hayotida yuz bergan eng katta baxtsizlik o‘z mustaqilligini yo‘qotishi natijasida ko‘plab “millat yuragi”ning so‘nish sabablari, adabiyot davr voqealari ta’sirida g‘arblashishi, mazmun-mundariyasi kengayishi, davriy matbuot va teatrning paydo bolishi, an’anaviy she’riyat va u bilan bog‘liq timsollarga yangi mazmun kirib kelishi, bir so‘z bilan aytilganda zamonoviy realistik adabiyot maydonga kelganligi va bunda ko‘plab tarixchi olim, tilshunos, pedagoglar, jumladan To‘lagan Xo‘jamyorovning faoliyati ko‘rsatib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** To‘lagan Xo‘jamyorov – Tavallo, Manifest, Yusuf Sayramiy, “Turon”, “Turkiston”, Obi Nazar mahallasi, “Mehnat daftarchasi”, “Sho‘royi islom”

1905-1917 yillarda Rossiya va jahon tarixida yuz bergan bir qator muhim siyosiy voqealar Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Ushbu davrdagi voqealarni bir qismini mashhur tatar shoiri Abdulla To‘qay :

Biz beshinchi yilda bir kun ko‘zni ochdik tong bilan,

Ishga da’vat etdi bizni kimdur ezgu nom bilan, - deb tasvirlagandi.

1904-yilda boshlangan rus-yapon urushi va Rossiyaning yengilishi , 1905-yildagi mamlakatdagi ichki nizolar, tobe millatlarga so‘z, matbuot, vijdon erkinligini va’da etuvchi 17- oktyabr Manifestining e’lon qilinishi, birinchi jahon urishi hamda Turkistondagi mardikorlik voqealari muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

Hamisha bunday vaqtda erkinliklarga imkon topiladigan davr yani o‘tish davri XX 20-yillari eski mustamlaka tuzumidan sotsialistik diktaturaga o‘tish davri bo‘ldi. Xuddi shu davrda Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat ijodining eng sara namunalarining vujudga kelgan ya’ni adabiy-madaniy harakatchilik boshlangan.

Turkistonda ham Rossiyadagi kabi ulkan siyosiy hodisalar yuz berdi va aynan ushbu vaqtda ko‘plab millatni erk va adolatga uyg‘otuvchi shoirlar bo‘lgan, jumladan, To‘lagan Xo‘jamyorovdir.

To‘lagan Xo‘jamyorov

Marifatparvar shoir To‘lagan Xo‘jamyorov el orasida Tavallo nomi tanilgan. U 1883-yilda Ko‘kcha dahasida Obi Nazar mahallasida dunyoga kelgan. Uning oilasi oziga toq oila bolgan. Avvaliga eski maktabda savodiniqaradi va Beklarbegi madrasasida, rus tuzem maktabida tahsil oladi. Otasi Xo‘jamyor 1909-yilda vafot etganidan so‘ng Zuhra ismli qizga uylanadi.

U 10-yillar matbuotda Tavallo taxallusi bilan sher va maqolalar yoza boshladi. Munavvarqori, Avloniy, Xusanxoja (Said Ahmadning otasi), Saidabdullo, Komilbek Norbekov, Podshoxojaevlar bilan birgalikda Toshkent Nashriyot shirkatini tuzib kitob chiqarishni yo‘lga qo‘yadilar.

Adibning ota kasbi mol sovdosi bilan shugullanish bolgan va uning “Jinoiy ishi” da saqlangan “Mehnat daftarchasi”dan 17-yillarda ijodiy sohadan tashqari barcha sohalarda ya’ni ichki ishlardan tortib mamuriy xojalaik, qurilishgacha faoliyat yuritganligi haqida malumot beradi. 1918-1927-yillar oraligida eski va yangi Shahar qomitalarga rais, fargona revtrivibunal azosi, tashsoyuz boshqarmasi azosi vazifalarida ishlagan. Afsuski, 1927-yili 23-oktyabrda moliyaviy kamomad aybi bilan 5 yil qamoqqa hukm qilinadi va 1928-yili 11-yanvarda aybi isbotlanmaganligi tufayli ozod qilinadi. Ozodligi uzoqqa chozilmadi. 1937-yili 14-avgustda Tavallo “aksilnqilobiy”, “Turon”, “Sho‘royi islom”, “Ittixodi taraqqiy”, “Milliy ittixod”, “Milliy istiqlol” tashkilotlarining azosi, “sherlarida millatchilik goyalarini ilgari surgan”likda ayblanib qamoqqa olinadi<sup>1</sup>.

Shoirning ijodining asossiy manbasi bu “Ravnaqul-islom” to‘plamidir. Bu toplam ichiga 70ta sher mavjud. Turkchilik, islomchilik ruhida. Adib ham o‘zga adiblar singari o‘z xalqini boshqa farovon, baxtli, rivojlangan holda ko‘rishni xohlardi va to‘plami ham Turkistonni qoplagan jaholat va nodonlik, tutqunlik va turg‘unlik haqida edi.

Tavallo Vatan mavzusiga alohida e’tibor beradi va “Suyukli Vatan haqinda” deb atalgan she’ri bor. U she’rlarida asosan, “Turon”, “Turkiston” atamalarini ko‘p qo‘llaydi.

Ko‘rasiz, Turon eli, Qarsda musulmonlardir,  
Rahm eting holina sizlar, Qardoshlardir...  
Yordam etmak kuni yeti siza, Turon ahli,  
Bu falokatzadalar, tuxmata qurbonlardir.

Shoir ushbu she’ri orqali Turon nomi Qadim Turkistonliklarnining shon-shavkatini eslatishi bilan birga, Turon ahli har tomonlama bizga qarindosh ekanligi ya’ni din qardoshligi, til qardoshligini ta’kidlayapti. “Turon” va “Turkiston” atamasi birgina she’rida emas boshqa she’rlarida ham uchraydi:

Deyur astag‘furullo, dafatan shundogmu Turonlig‘...<sup>2</sup>

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Milliy Xavfsizlik xizmati arxivi, 32592-raqamli “ish”, 15-bet

<sup>2</sup> “Uyonmaz ersa millat” she’ridan

Yosh-qari qadrini bil, Turon elin mehmonidur...<sup>3</sup>

Bahora do'ndi Turkiston, ochildi g'unchalar xandon...<sup>4</sup>

Bu Turkiston elidin tobmadim iqrar, yo'x, yo'x, yo'x...<sup>5</sup>

Ruslar esa shu singari she'rlar va ularning mualliflarini bizdan olisda tutishini boisi, uzoqdagi qardoshlarini tanitmaslik, bizlarga turklarni yomonotliq qilib ko'rsatish ular uchun juda manfaatdor. Milliy uyg'onish ruhida yurgan har qanday shaxsni harakatini so'ndirish, ma'naviy ongini har tomonlama sindirishdek ishlar tufayli hokim xalqqa ko'p foydasi tegadigan tobe xalqni shu yo'sinda o'z joyida uchlab turishgan.

Shoirning sevimli mavzularidan biri hurriyat bo'lgan. U inson erkini hamma narsadan ustun qo'yardi. Shuning uchun ham, o'z erkidan voz kechib, tahlikali bir davrda o'z xaqini erkinlik, ozodlik sari undardi. She'riyat – bu yagona kurash. O'zining omonat farog'ati emas, ko'pning nafi, manfaati uchun adolat va adolatsizlik, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash.

Kel Tavallo, bo'l muzovvir, ol qalamni qo'lg'a san,

Chek frontlar suvratin, ko'rsun hama naqqoshlar.

Darvoqe, adibga Tavallo tahallusini sayramlik shoir Yusuf Sayramiy bergan.

Xalqining jonkuyar farzandi To'lagan Xo'jamiyrov - Tavallo kelajakda ilm-fan, madaniyat rijovlangan shaharlar sirasida o'z xaqini, millatini ko'rishni juda xohladi va buning uchun jonidan kechib harakat qildi. Tavallo asarlari orqali xolis va asosli nuqtai nazarlari, siyosatdonligi va donishmandligi bilan o'sha davr ijtimoiy-madaniy taraqqiyotiga o'z tasirini o'tkaza oldi. Uning ilmiy-tarixiy asarlari vatanimiz tarixini o'rganishda, shubhasiz, zarur manbadir. U adabiyotimiz tarixida 10-yillardagi millatni erk va adolatga uygotgan joshqin, extirosli she'rlari bilan ko'ngildan joy oldi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Begali Qosimov, Sharif Yusupov, Ulug'bek Dolimov, Shuhrat Rizayev, Sunnat Axmedov., Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti – Toshkent: Ma'naviyat, 2004
2. Tavallo., Ravnaqul-islom – Toshkent: Fan, 1993

<sup>3</sup> "Muxammasi Tavallo bar g'azali Mavlaviy Yusuf Saryamiy" she'ridan

<sup>4</sup> "Navro'zlik haqinda" she'ridan

<sup>5</sup> "Jahon ayvonida..." she'ridan